



DAVLAT BOSHQAVIDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA SUD NAZORATI TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qurbonov Oybek Xolli o'g'li

Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi
Jarqo'rg'on tuman adliya bo'limi Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15393235>

Annotatsiya: mazkur maqolada qonuniylikni ta'minlashda sud nazorati tushunchasi va mazmuni, nazoratning tashkiliy shakllari, davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda sud nazoratining o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: qonuniylikni ta'minlashda sud nazorati, nazoratning tashkiliy shakllari, "Ma'muriy adolat" tushunchasi, sud nazorati.

Bugungi kunda biz ijtimoiy munosabatlar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Bunday sharoitda inson huquq va erkinliklarini, davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash pirovard maqsad bo'lib qolmoqda. Bu borada jahon hamjamiyatida sud organlari davlatda qonun ustuvorligini ta'minlovchi asosiy organlardan biri sifatida qaraladi.

Sudlarning ananaviy funksiyasiga qaraydigan bo'lsak, avvalo, odil sudlovni amalga oshirish funksiyasi orqali ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilishda buzilgan huquqlarni himoya qilishdan iboratdir. 18-19 asrlarda Yevropa va Amerikada keng tarqalgan huquqiy davlat nazariyasi va hokimiyatning bo'linish prinsipi orqali sudlarning vakolatlari kengaytirilib, mustaqilligi ta'minlana boshlandi. Buning natijasida sudlarga qo'shimcha "nazorat" funksiyasi yuklana boshlandi, ya'ni qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari aktlarining qonuniyligini tekshirish vakolati berildi. Ilmiy o'quv adabiyotlarda va lug'atlarda "sud nazorati" haqida ma'lumotlarni kam topamiz. Nazorat haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, nazorat – maxsus vakolatli organlarning qonuniylik buzilishini aniqlash maqsadida bo'ysunmagan organlar yoki shaxslar ustidan olib boradigan doimiy, muntazam kuzatuvidir. Nazoratning asosiy xususiyati shundaki, nazorat organlari o'zining funksiyasi va vakolatlarini ularga tashkiliy jihatdan bo'ysunmagan obyektlarga nisbatan amalga oshiradi.

Nazoratning tashkiliy shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, organ rahbarlarining, shuningdek, ular tomonidan tuzilgan komissiyalarning nazorat faoliyati, ular uchun asosiy ish turi hisoblanmaydi, balki organga kelib tushgan ariza, shikoyat, ish yuzasidan tashkil etiladi;



ikkinchidan, maxsus idoralar, xizmatlar va organlar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat ular uchun eng muhim yoki bosh funksiya hisoblanadi (masalan, sanitariya-epidemiologiya xizmati tizimi).

Ma'muriy huquq sohasida sud nazorati ta'rifga yagona yondashuvning yo'qligi ko'pincha chalkashliklarga olib keladi va ushbu tushunchani "ma'muriy sud ishi", "ma'muriy adolat", "sud nazorat", "ma'muriy yurisdiksiya" kabi shakllarda qo'llaniladi. Ushu tushunchalarni avvalo ma'nosini anglab olishimiz lozim bo'ladi. Chunki terminning ma'nosini anglash muammoning yarmini yechishga tengdir.

"Ma'muriy adolat" tushunchasiga keladigan bo'lsak, har bir huquqiy tizimda alohida ta'rifga ega. Shuningdek, ma'muriy adolat odatda davlat ma'muriyati ishtirokida huquqiy nizolarni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan maxsus ma'muriy sudlarning faoliyati bilan bog'liq¹. Ma'muriy adolat tor ma'noda davlat boshqaruvi ostida shaxslar va boshqaruv menejment sohasi o'rtasida ruxsatnomalar berish yuzadan kelib chiqadigan nizolarning ma'lum bir protsessual, qonuniy tartibda hal etilishi tushuniladi².

N.G.Salischeva va N.Y.Xamanevaning fikriga ko'ra "Ma'muriy sud ishlarini yuritish nafaqat ma'muriy ishlarga tegishli huquqbuzarliklar bilan bog'liq holatlar, shuningdek, ijro hokimiyati organlariga sud nazorat funksiyalarining munosabati orqali amalga oshirilishi kerak"³. Y.N.Starilov "ma'muriy ish yuritish" atamasini ikki xususiyatini qayd etib, ikki ma'noda qo'llaydi: "ijobiy", davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash va "salbiy", huquqbuzarlarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni qo'llashga qaratilgan faoliyat sifatida⁴.

Demak, sud nazorati deyilganda ijro etuvchi hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning harakatlarining amaldagi qonun hujjatlariga og'ishmasdan amal qilishlarini nazorat qilishidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib sud nazoratining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

1) sud organi tomonidan nazorat qilinadigan obyektlar tashkiliy va funksional jihatdan mustaqil bo'ladi;

2) sud nazorati hokimiyatning o'zaro tiyib turuvchi tarmog'i sifatida qonunchilik va ijro etuvchi organlar tomonidan vakolatlarni suiiste'mol qilishga barham berish orqali amalga oshiriladi;



3) sud nazorati sud jarayoni doirasida amalga oshiriladi va protsessual qonun normalari bilan qat'iy tartibga solinadi;

4) sudda huquqiy munosabatlar subyektlarining maxsus doirasi, ya'ni ijro hokimiyati subyektlari va majburiy ishtirokchilarning mavjudligi;

5) sud nazorati uchun asos ommaviy huquqiy nizoning mavjudligi;

6) sud nazorati ikki tomonlama maqsadga ega: bir tomondan, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ya'ni xususiy manfaatlarni himoya qilish, boshqa tomondan, ijro etuvchi hokimiyat tomonlari o'zboshimchalikning oldini olish, ya'ni jamoat manfaatlarini himoya qilish;

7) sudning faoliyati quyidagi mezonlar bilan ijro etuvchi hokimiyatni nazorat qilish bo'yicha cheklangan:

- sud nazoratini amalga oshirish uchun faqat manfaatdor shaxsning tegishli bayonoti asos bo'lishi mumkinligi, ya'ni sud nazoratni passiv tarzda vositachilik orqali amalga oshirishligi;

- nazorat faoliyati obykti subyektlar tomonidan faqat qonuniylik talablariga rioya qilinishini tekshiradi, ammo maqsadga muvofiqligini tekshirmasligi;

- qonunchilik bazasi sudga nazorat faoliyatining cheklangan darajada cheklangan vositalari va usullarining tor doirasini taqdim etganligi;

- qabul qilingan qarorlarni mustaqil ravishda majburiy ijro etish imkoniyatining yo'qligi.

Ushbu xususiyatlar bizga sud nazorati tushunchasini anglashimiz uchun yordam beradi. Bunda sud nazorati orqali davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatida qonun ustuvorligi ta'minlanadi hamda inson huquqlari va erkinliklari mustahkam himoyaga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исполнительная власть в Российской Федерации. Проблемы развития / Под ред. И.Л. Бачило. М., 1998. С. 353, 369–370, 376–377.
2. Старилов Ю.Н. Административные суды в России. Новые аргументы «за» и «против». М., 2004. С. 54–55, 60–61.
3. Словарь административного права / Под ред. И.Л. Бачило, Н.Г. Салищевой, Н.Ю. Хаманевой. М., 1999. С.11.
4. Фиалковская И.Д. Перспективы развития административной юстиции в России // Проблемы модернизации российского общества: социальные, правовые, экономические, экологические аспекты. Н. Новгород, 2006. С. 360

